

BIOLOGIYA DARSLARIDA EKOLOGIK EKSKURSIYALARNI TASHKIL ETISH USULLARI

<https://doi.org/10.3461/zenodo.18092536>

Quldosheva Dilso'z Sunnatovna

Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

[Tel:+998907390274](tel:+998907390274) telegramm:@Dilsuz_Sunnatovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etish innovatsion usullari, samarali psixologik-pedagogik metod va texnologiyalari keltirib o'tilgan. Ta'lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishda ekologik ekskursiyalarning metodlar yordamida metodlar yordamida mustahkamlash to'g'risidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ilg'or tajribalar va ularni kengaytirish bo'yicha takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar

metod, ekologik ekskursiya, og'zaki metod, ko'rgazmali metod, amaliy metod, hikoya metod, o'quvchilarda bilimlarni mustahkamlash, tushuntirish metodi, tabiat sirlarini kash qilish.

Annotation

This article presents innovative methods, effective psychological and pedagogical approaches and technologies for organizing environmental excursions in biology lessons. The article highlights the importance of environmental excursions in developing students' theoretical and practical knowledge and offers recommendations for improving and expanding best practices.

Key words

method, ecological excursion, verbal method, visual method, practical method, narrative method, consolidation of students' knowledge, explanation method, revealing the secrets of nature.

Аннотация

В данной статье представлены инновационные методы, эффективные психолого-педагогические подходы и технологии организации экологических экскурсий на уроках биологии. В статье подчеркивается важность экологических экскурсий в формировании теоретических и практических знаний студентов, а также предлагаются рекомендации по совершенствованию и расширению передового опыта.

Ключевые слова

метод, экологическая экскурсия, словесный метод, наглядный метод, практический метод, повествовательный метод, закрепление знаний у учащихся, метод объяснения, раскрытие тайн природы.

Kirish: Axborot va zamonaviy texnologiyalar asri pedagogik hamjamiyat oldiga yangi, samarali psixologik-pedagogik metod va texnologiyalarni izlashni kuchaytirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish, innovatsion usullar asosida ta'lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish asosida mustahkamlab borish vazifalarini qo'ymoqda. Bu o'z navbatida pedagoglardan ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishi orqali ta'lim sifatini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish metodlarini o'rganish, mavjudlarini fan doirasida takomillashtirishni nazarda tutadi.

Ko'pgina manbalarda metod yunonchadan tarjima qilinganda "bilish yo'li" "maqsadga erishish usuli" ma'nosini anglatadi. Metod-bu bilish va amaliy usullar hamda amallar yig'indisi bo'lib, bilish va amaliyotda muayyan natijalarga erishish yo'lidir. U yoki bu metoddan foydalanish bilish yoki amaliy faoliyatning maqsadi, o'rganish yoki harakat predmeti va faoliyatni amalga oshiradigan sharoitlar bilan belgilanadi[99].³² O'qitish metodi-o'qituvchi tomonidan bilimlarni berish va shu bilan ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usuli. Nazariya va amaliyotda biologiyani o'qitishning turli metodlari shakllangan bo'lib, ularni eng muhim umumiy belgilar bilan quyidagicha belgilash mumkin: bilim olish manbai, o'qituvchi faoliyatining xarakteri, o'qitish jarayoni ishtirokchilarining xarakteri. Ushbu belgilar asosida o'qitish metodlarining uch guruhi ajratiladi: og'zaki (bilim manbai-so'z), ko'rgazmalilik (bilim manbai so'z va ko'rgazmalilik), amaliy (bilim manbai-so'z, o'rganish obyekti, predmetni amaliy tekshirish).

Tadqiqot sifatida olib borilgan tajriba-sinov davrida biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishda mavzu mazmunini tushuntirishda quyidagi usullardan foydalanish ijobiy samara berishi kuzatildi.

Og'zaki metodlar guruhi: hikoya, suhbat, tushuntirish ma'ruza kabilar kiradi. Bunda o'qituvchining faoliyati so'z shaklida, o'quvchilarning faoliyati esa asosan tinglash, anglash, og'zaki va yozma javoblar shaklida ifodalash;

ko'rgazmali metodlar guruhi: tajribalar va ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, narsa va hodisalarni tabiiy holda tasvirda (rasm, sxema, mulyaj, model) ko'rsatish tashkil etadi. Bunda, o'qituvchi so'z bilan kuzatishni, o'rganilayotgan obyektni ko'rib chiqishni tashkil etadi, o'quvchilar esa uni kuzatib, anglab xulosa chiqarish bilan bilim olish;

³² <https://ktonanovenkogo.ru>

amaliy metodlar guruhi: o'rganilayotgan obyekt yoki darslik bilan ishlashni tashkil etadi. Ulardan laboratoriya ishlari vaqtida darsda yoki amaliy mashg'ulotlarda, ekskursiyada, tirik tabiat burchagida, maktab tajriba maydonchasida foydalaniladi. Bunda, so'z bilan o'rganilayotgan mavzu xususiyatlarini so'zlab topshiriqlar beradi. O'quvchilar esa, anglab tushunganlarini amaliy bajarib xulosalar chiqarishadi.

So'z ta'lim metodlarining barcha guruhlarida ishtirok etadi, bunda so'zli metodlarda uning vazifasi bilim manbai bo'lsa, ko'rgazmali va amaliy metodlarda esa o'quvchilarning kuzatish va amaliy faoliyatni tashkil etuvchi vosita sifatida foydalaniladi. Ta'lim metodlarining xilma-xilligi ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan turli xil metodik usullar orqali amalga oshiriladi. Metodik usullar-bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning alohida harakatini ifodolovchi u yoki metodning tarkibi qismi sanaladi.

Hikoya metodi-o'quv materialini mazmuni og'zaki qilib berishni nazarda tutadi. Bu usul maktab ta'limining barcha bosqichlarida qo'llaniladi. Faqat hikoyaning xarakteri, hajmi davomiyligi fan xususiyati va o'quvchilar yosh xususiyatiga qarab o'zgarib boradi. Hikoyaga yangi bilimlarni bayon qilish usuli sifatida bir qator pedagogik talablar qo'yiladi:

- hikoya o'qitishning g'oyaviy-axloqiy yo'nalishini ta'minlashi kerak;
- faqat ishonchli va ilmiy jihatdan tekshirilgan faktlarni o'z ichiga olishi kerak;
- hikoya bayoni aniq matiqqa ega bo'lishi kerak;
- hissiyotli bo'lishi kerak;
- sodda va tushunarli bayon etiligi kerak;

bayon qilinayotgan faktlar, voqelarga o'qituvchining shaxsiy bahosi va munosabat elementlarini aks ettirishi kerak;

Hikoya uchun uchta tarkibiy elementning mavjudligi xarakterlidir: tugun, kulminatsiya va yechim. Og'zaki metodlarning bu turi maktabda biologiya darslarida olimlarning tarjimai hollarini o'rganishda, o'quvchilarni biologiya sohasidagi kashfiyotlar tarixi bilan tanishtirishda qo'llaniladi.

Takliflar:

10-sinf Biologiya fani, 1-mavzu: "Biologiya fan sifatida" mavzusi doirasida fanga kirish uchun hikoya metodining qo'llanilishi:

1."Tabiat sirlarini kashf etish". 15-yoshli Jasur biologiya fanini oddiy bir o'quv predmeti deb hisoblardi. U tabiatni yaxshi ko'rsa-da o'simliklar va hayvonlar haqida chuqurroq o'ylab ko'rmagan edi. Bir kuni o'chituvchi o'quvchilarni shahar chetidagi o'rmonga ekskursiyaga olib borishga qaror qildi. Uning aytishicha, bu sayohat biologiya fani nima uchun muhim ekanligini aniq ko'rsatib beradi. Jasur va

uning sinfdoshlari guruhlarga bo'lindi, o'qituvchi har bir guruhga alohida topshiriq berdi:

Birinchi guruh:-o'simliklarni o'rganishi;

Ikkinchi guruh:-hayvonlarni kuzatishi;

Uchinchi guruh:-atrof-muhit omillarini tahlil qilish kerak edi.

Ekskursiya davomida Jasur va uning do'stlari qiziqarli kashfiyotlar qilishdi. Ularning guruhi turli o'simliklarni o'rganar ekan, hayratlanarli faktlarni aniqlashdi. Masalan ayrim o'simliklar atrofdagi o'zgarishlarga reaksiya bildirib, o'ziga xos ximik moddalar chiqarar ekan. Shu payt boshqa guruhdagilar bir quyonning izlarini topishdi. Quyon yugirib kelib, atrofdagi o'sgan o'tlarni yeya boshladi. Lekin eng qizig'i, o'sha o'tlar quyonlarni himoya qilish uchun achchiq modda ajratib chiqarar ekan. Jasur bu haqida eshitib, "Hamma narsa bir-biriga bog'liq ekan-da" deb hayratda qoldi.

Eskursiyadan keyin sinfga qaytgandan so'ng o'qituvchi:

Hozir sizlar biologiya nima ekanini amalda ko'rdinglar. U faqat darslikdagi so'zlar emas, balki hayotning o'zi,-dedi.

Jasur va uning do'stlari biologiya haqiqatan ham jonli fan ekanini tushunib yetishdi. Shu kundan boshlab, u tabiatni faqat go'zallik sifatida emas, balki tirik organizmlar o'rtasidagi ajoyib bog'liqliklar majmuasi sifatida ko'ra boshladi.

Bu hikoya orqali o'quvchilar biologiya fani haqiqatan ham ularni o'rab turgan tabiatni tutushinshga yordam berishini anglab yetadilar. Hikoya ularni kuzatuvchilikka o'rgatadi, fanga bo'lgan qizish uyg'otadi va atrof-muhiga ehtiyoatkorna munosabatla bo'lishga undaydi.

2. "Maktab hovlisidagi katta kashfiyot". O'qituvchining kelasi darsda ekskursiyaga boramiz tayyorlanib kelinglar degan topshirig'iga asosan Saida va uning sinfdoshlari biologiya darsida jonli tabiatni o'rganish uchun shahar istirohat bog'iga ekskursiya chiqishni kutishgan edi. Lekin o'qituvchining kutilmagan "syurprizi" ammo, o'qituvchi Muhiddin aka ularni maktab hovlisiga ekskursiyaga chiqishlarini e'lon qildi. "Maktab hovlisida nimani kuzatishimiz mukmin?"-deb o'quvchilar hayron bo'lishdi, sababi ularga tabiatni faqat o'rmon yoki tog'larda o'rganish ummkindek tuyulardi. O'qituvchi o'quvchilarni guruhlarga ajratdi va quyidagi topshiriqlarni bajarish vazifasini berdi.

Birinchi guruhga: maktab hovlisidagi o'simliklarni kuzatish. Ular daraxt va butalar turini aniqlashib, hatto kichkina yurgan hasharotlarni ham payqashdi.

Ikkinchi guruhga:-hovlidagi hayvon va hasharotlarni kuzatish. Ular mushuklar, turli qushlar, chumolilar va hatto oziq-ovqat qoldiqlarini topib yurgan kalamushni ham payqashdi. Katta shaharning maktab hovlisida hayvonot olami bor ekan deb hayratlanib qolishdi.

Uchinchi guruhga:-atrof-muhit faktorlarini o'rganish. Ular harorat, shamol va yorug'likni o'lchashdi. Ma'lum bo'lishicha, maktab hovlisining turli burchaklarida iqlim sharoiti bir-biridan farq qilishi, daraxt soyasida kamlikning yuqori bo'lishi va asfalt esa issiqlikni yaxshi saqlashini aniqlab olishdi. Ekskursiya yakunida o'qituvchi so'zga chiqib, "tabiatni o'rganish uchun albatta o'rmon yoki tog'laoga borish shart emasligi, tabiat atrofimizda-maktab hovlisida, uyingiz yonida hattoki kichik gul ishishlarida ham mavjudligini tushuntirib o'tdi. Biologiya bizga tabiat bilan qanday bog'liqligimini tushunishga yordam beradi". Shunday kundag boshlab Saida va uning sinfdoshlari maktab hovlisiga boshqacha nazar bilan qarashni boshlashdi. Ular endi tabiatni o'rganish uchun shahardan chiqib ketish shart emasligini anglab yetdilar.

Demak, aytishimiz mumkinki, biologiya darslarida hikoya metodini qo'llash o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va ularni ilmga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Hikoya metodi orqali biologiyaning nazariy va amaliy jihatlari o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Hikoyani qo'llash, dars mavzusini yoritish asosida o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, o'qituvchi mavzuga mos hikoyadan foydalanib ekskursiya tashkil etishi ham maqsadga muvofiq. Sababi, konstruktivistik ta'lim nazariyasiga (J. Piaje, Lev Vigotskiy) ko'ra, bilimlar faqat darslikdan emas, balki o'quvchining shaxsiy tajribasi va muhiti orqali shakllanib rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Hikoya metodi o'quvchiga o'z tajribasi orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Ekologik ekskursiyalarda hikoyalar, tabiatdagi turli vaziyatlarni o'quvchiga o'z ko'zi bilan ko'rishga imkon beradi va bunday tajriba ularning fikrlash va baholash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Suhbat metodi. Og'zaki uslubning bu turi ta'lim mazmunini muhokama qilishning savol-javob shaklini o'z ichiga oladi, bunda fikr almashish amalga oshiriladi. Suhbat yo'nalishi mavzuga mos ravishda o'quvchilarning bilimlariga tayangan hola, hal qilinishi kerak bo'lgan aniq savol bilan belgilanadi. Suhbat ma'lum bir xulosa va umumlashtirish bilan yakunlanadi. O'qituvchi muammoli yoki yevrestik (qisman kashfiyot) suhbatni rejalashtiradi, shunda tanish ilgari o'rganilgan material mustaqil izlanish va yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun yordam bo'lib xizmat qiladi.

Savol-javob shaklida o'qitish usulida o'quvchilar e'tiborini uzoq vaqt zo'riqtirishga hayot yo'q, chunki mazmun qismlarga bo'lib tushuntiriladi va har bir qismning o'zlashtirilishi doimiy tekshirib boriladi. Biroq bu usul bilimlarni "maydalab" yuboradi; o'quvchilar izchil va batafsil so'zlashga o'rganmaydilar. Shu sababli, yuqori sinflarda suhbat usuli o'quv jarayonining katta qismini egallashi lozim. Biologiya darslarida quydagi turlardan foydalanish mumkin: kirish, bilim

berish, bilimlarni mustahkamlash va nazorat-tuzatish suhbatlari. Kirish suhbatlari ko'pincha induktiv tarzda, nazorat-tuzatish suhbatlari esa deduktiv tarzda olib boriladi.

Tushuntirish metodi-bu bilimni o'rganish, tajriba va nazariy bilimni yaxshilash, yangi ma'lumotni egallash va oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir. U o'z navbatida har xil falsafiy, psixologik va pedagogik asoslarga ega bo'lib, faqat ta'limda emas, balki ilmiy izlanishlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tushuntirish metodining asosiy maqsadi-yangi kelgan ma'lumotni tushunarli, oddiy va aniq tarzda taqdim qidishdir.

Tushuntirish metodi ko'pincha biologiya darslarida va ekskursiyalar paytida qo'llaniladi. U faktlar va dalillarni tahlil qilish asosida o'quv materialini aniq, mantiqiy taqdim etish, so'ngra xulosalar chiqarish bilan tavsiflanadi. Tushuntirishda amaliy ishlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar ham mavjud bo'lib, ular qisqa va aniq bo'lishni talab qiladi.

Maktab ma'ruzasi-ta'lim mazmunini kamida 20-25 daqiqa davomida og'zaki bayon qilish bo'lib, hikoya yoki suhbat bilan almashib turishi mumkin. Odatda, ma'ruza juda katta hajmdagi, darslikda yetarlicha bayon etilmagan o'quv materialini tushuntirishda ahamiyatli sanaladi. Ma'ruzani qo'llash o'qituvchidan dars maqsadini majburiy ravishda qo'yishni, uni ketma-ket ochib beriladigan bir qator masalalarga ajratishni talab qiladi. Bunda o'quvchilarga qisqacha yozuvlar va asosiy xulosalar qilish tavsiya etiladi. Ana shu jihatni hisobga olgan holda biologiya darslarida o'qituvchining nutq madaniyatiga rioya qilish ahamiyati katta ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv, kommunikativ komponentlarini rivojlantirishga imkon berish nuqtayi nazaridan "TED Talks" formatda ma'ruza qilishning afzalliklarini ko'rsatib o'tamiz.

Bugungi kunda "TED Talks" uslubidagi nutqlar butun dunyoda juda mashhur. "TED" nomi texnologiya, ko'ngilochar va dizayn (Technology, Entertainment and Design) so'zlarining birinchi harflaridan kelib chiqqan, chunki ilk konferensiya ushbu uchta mavzuga bag'ishlangan. Loyihaning amaldagi rahbari Kris Anderson loyiha shiorini "Yozishga arziydigan g'oyalar" deb ta'kidlagan. Bu g'oyalarga bugungi kunda barcha soha vakillarining eng samarali usullari sifatida qaralmoqda.

10-11 sinf biologiya darslarida fan doirasida tayanch kompetensiyalarni o'zlashtirilishi, fan dasturlar tahlilidan so'ng "Biologiya" o'quv fani mavzularini diversifikatsiya qilish, ya'ni ta'lim oluvchilarning ekologik ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, yangi bilimlarni o'rganishga va ko'proq o'z ustida ishlashga o'rgatish maqsadida o'quv jarayonida mavzu doirasida "TED Talks" usulida ma'ruzalar o'tkazildi. Masalan, bunda ta'lim maqsadi integratsiya obyektlari

tomonidan ekologik madaniyat mantig'idan kelib chiqib, ta'lim oluvchilarning ekologik savodxonligini rivojlantirish maqsadida mavzular tarkibiga ekologik ekskursiyalarga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish masalalari alohida kiritilgan. Biologiya ta'limida TED formatdagi ma'ruzalarning qo'llanilishi aniq natijalarga erishish uchun murakkab fanning mazmunini tushunarli va qiziqarli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu formatdagi ma'ruzalar, 15-20 daqiqalik videolar, o'quvchi e'tiborini tortuvchi, ma'lumotlarni tizimli va vizual tarzda yetkazishga yordam beradi. TED formatdagi ma'ruzalarning eng katta afzalligi ularning vizual va audio elementlar bilan ta'minlangan bo'lib, bu ma'ruzani ko'proq ijodiy va interfaol tarzda taqdim qilish imkonini beradi. Biologiya kabi turli biologik konsepsiyalar va murakkab nazariy tushunchalarning vizual ko'rsatilishi, ularning ko'rsatilgan modellari va animatsiyalar bilan qo'llanilishi, o'quvchilarga bu materialni osonroq tushunish va yodlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni turli xil metodik usullar bilan amalga oshirish, o'qitish jarayonida bir nechta metodlarni birgalikda qo'llab, o'quvchilarning bilim olish samaradorlini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, dars jarayonida ekologik ekskursiya tashkil etishda quyidagi metodlar integratsiyasi ham samarali natijalarga olib keladi.

Muammoli ta'lim-o'quvchilarga hayotiy misollar va maummoli savollar orqali mustaqil izlanishga yo'naltirish mumkin.

Tajriba metodi-biologiya kuzatish va laboratoriya yoki tabiiy muhitda o'rganish.

Guruhlarda ishlash-har bir guruhning o'z vazifalari bor va ular natijalarini taqdim qiladi.

Kuzatish va tahlil-o'simliklar, hayvonlar va ekologik faktorlarni kuzatish orqali ma'lumot yig'ish va xulosa chiqarish.

Interfaol usullar- "Sabab va natija" kabi interfaol topshiriqlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilib, muayyan mavzuni o'rganishda yoki mavjud muammolarni hal qilishda fan va mavzu xususiyatidan kelib chiqib tanlangan metodlar o'z o'rnida qo'llanilsa o'z samarasini beradi.

Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni ilmiy asoslangan metodika orqali tashkil etish nafaqat o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirishga, balki ularda ilmiy tadqiqot metodlarini o'zlashtirishga ham imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatov, M., Qo'shqarova, D. Biologiya o'qitish metodikasi. T.: O'zbekiston, 2019.
2. Sharipova, G. Maktabda ekologik tarbiyani tashkil etish metodikasi. T.: Fan va texnologiya, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining umumiy o'rta ta'limdagi ekologik tarbiya konsepsiyasi, 2023.
4. Biologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar to'plami. Respublika ta'lim markazi nashri, 2022.
5. To'raqulov N. Biologiya o'qitish metodikasi – Toshkent: “O'qituvchi”, 2021.
6. Nazarova G. Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019
7. Tursunov A., Karimov S. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari – Toshkent, 2020
8. G'ulomova M. Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etish metodikasi – Toshkent, 2022.
9. Xolmatova D. “Ekologik ekskursiyalar – ekologik tarbiyaning muhim shakli” – Ta'limda innovatsiyalar jurnali, 2021.